

**Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va
Hukumatining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan
topshiriqlarni o‘z vaqtida, aniq va to‘laqonli amalga oshirilishini
tashkil etish to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta’minlash yuzasidan ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi 117-sonli va 2021-yil 10-fevraldagi 6166-sonli farmonlari, 2021-yil 31-maydagi 5132-sonli qarorida** belgilangan topshiriqlar asosida viloyat hokimligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlari o‘z vaqtida ijroga qaratilib, to‘liq va sifatli bajarilishi qat’iy nazoratga olingan.

Tahlillarga ko‘ra, viloyat hokimligiga 2025 yilning 26-noyabrga qadar **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **1 703 ta (289 ta Farmon, 927 ta qaror, 37 ta farmoyish, 448 ta majlis va tashrif bayonlari)** va **2 ta** Qonunda **15 693 ta** topshiriqlar kelib tushgan.

Ushbu topshiriqlarni ijrosini o‘z vaqtida sifatli ta’minlash maqsadida har bitta hujjat bo‘yicha nazorat rejalari ishlab chiqilib, taalluqli boshqarma, tashkilotlarga hamda shahar, tuman hokimliklariga ijro uchun yuborilgan. Bugungi kunda ushbu topshiriqlarning **13 204 tasi** bajarilgan, **2 419 ta** topshiriqlarni belgilangan muddatlarda ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Shu jumladan, joriy yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlaridagi topshiriqlarida viloyat hokimligi mas’ul bo‘lgan **152 ta** topshiriqlari bajarilishi belgilangan bo‘lib, mazkur topshiriqlarning belgilangan muddatlarda va sifatli ta’minlash bo‘yicha barcha zaruriy choralari ko‘rib borilmoqda.

Viloyat hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini **“kunbay” va “soatbay”** tahlil qilib borish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Haftaning har dushanba kuni viloyat hokimi rahbarligida, haftaning juma kunlari hokimning birinchi o‘rinbosari huzurida ijro intizomi holati tanqidiy muhokama qilib kelinmoqda.

Topshiriqlar o‘z muddatlarida bajarilishini ta’minlash maqsadida har oyning **25-sanasida** kelgusi oyda ijrosi belgilangan topshiriqlar ro‘yxati shakllantirilib,

mas'ul viloyat hokimining o'rinbosarlari, guruh va bo'lim boshliqlariga, taalluqli boshqarma, tashkilotlar hamda shahar, tuman hokimliklariga yuborilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mas'ul ijrochilar kesimida **“Taqvim reja”** va **“yo'l xaritalari”** tasdiqlanib, shu asosida ish tashkil etilmoqda. Tahlillar natijalari bo'yicha, ijro intizomini ta'minlashda yo'l qo'yilgan tizimli kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilmqda. O'z navbatida, viloyat boshqarma va tashkilotlar hamda shahar, tumanlar hokimliklarida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosi bo'yicha tasdiqlangan jadval asosida maqsadli va kompleks o'rganishlar o'tkazilmoqda.

Viloyat hokimligida **“Ijro.gov.uz”** elektron tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning Farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida to'lik va sifatli bajarilishini ta'minlashga qaratilgan aniq vazifalar belgilanib, topshiriqlar ijrosini ta'minlash choralari doimiy nazoratga olinadi.

F.Raxmatullayev – Toshkent viloyati hokimligi
Ijro intizomi nazorati bo'limi boshlig'i